

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

SADIKOVA CHINARA SALAXIDDINOVNA

**HAR XIL ISHLAB CHIQRARISH TIPIGA MANSUB SIMMENTAL ZOTLI
BUQACHALARNING GO‘SHT MAHSULDORLIGI**

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

SAMARQAND – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Sadikova Chinara Salaxiddinovna

Har xil ishlab chiqarish tipiga mansub simmental zotli buqachalarning go‘sh
mahsuldorligi..... 3

Садикова Чинара Салахиддиновна

Мясная продуктивность бычков симментальской породы разных
производственных типов..... 21

Sadikova Chinara Salaxiddinovna

Meat productivity of gobs of the simmental breed of different production
types..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published work..... 43

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

SADIKOVA CHINARA SALAXIDDINOVNA

**HAR XIL ISHLAB CHIQRISH TIPIGA MANSUB SIMMENTAL ZOTLI
BUQACHALARNING GO‘SHT MAHSULDORLIGI**

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

SAMARQAND – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Qx772 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzkarakul.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Amirov Shavkat Kuzibayevich

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turganbayev Ruzimbay Urababayevich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Qurbonova Shaxnoza Ergashevna

qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD05/30.12.2019.Qx.75.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 47 uy. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti majlislar zali, 2-qavat, tel: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 47-uy, institut ma‘muriy binosi, 1-qavat. Tel: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil «__» ____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «__» «__» dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi)

E.S. Shaptakov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., (DSc) dotsent

Z.S.Klichev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

D.Xolmirzayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Simmental zoti dunyoda eng qadimiy zoo‘lib, qo‘shmahsuldor yo‘nalishdagi zot hisoblanadi. Simmental zoti uzoq vaqt davomida tanlash va saralash yo‘li bilan, xalq seleksiyasi natijasida shakllangan. Aksariyat davlatlarda simmental zotidan go‘sh va sut yo‘nalishidagi qoramollar bilan chatishtirib, go‘sh yetishtirishda foydalanilmoqda. Bu mamlakatlar qatoriga: AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Braziliya va boshqalar kiradi.¹ Shu o‘rinda, aholini sifatli qoramol go‘sh bilan ta‘minlashda simmental zotli qoramollardan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

MDH mamlakatlari ichida Rossiyaning 30 ta hududida simmental zoti urchitiladi. Eng ko‘p Belgorod, Voronej, Licheysk viloyatlarida, Boshqirdiston, Oltoy va Krasnodar o‘lkalarida urchitilmoqda. Zotni urchitish bo‘yicha eng ilg‘or xo‘jaliklar qatorida: OPX “Baymakskiy”, CXPK “Chel-maydan” (Mordoviya), “Biysk”, “Chistyun” va boshqalarni misol qilish mumkin. Rossiyada keng tarqalgan simmental zotli qoramollarda naslchilik ishlarini olib borish yo‘li bilan go‘sh mahsuldorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga so‘nggi yillarda rivojlangan xorijiy davlatlardan juda ko‘p sonda simmental zotidagi qoramollar keltirildi va bu tadbirlar hamon davom etmoqda. Seleksionerlar, qishloq xo‘jalik hayvonlarining zotlari ichida belgilariga asoslanib, ishlab chiqarish tiplarini ajratadilar. Turli ishlab chiqarish tipidagi hayvonlar mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Simmental zoti qo‘shmahsuldor yo‘nalishida bo‘lib, zotning ichida: sut; sut-go‘sh va go‘sh -sut kabi ishlab chiqarish tiplari mavjud. Mazkur zot ichida sut-go‘sh va go‘sh-sut tiplari go‘sh ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qator chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida”, “...Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorva mollar bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirish, aholi xonadonlarida 2,4 mln bosh sigir va qochirish yoshidagi tanalarni sun‘iy urug‘lantirish, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash...” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan². O‘zbekistonda go‘sh ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida, xorijdan import yo‘li bilan keltirilgan va hozirgi kunda urchitilayotgan qoramol zotlaridan samarali foydalanish, ularning go‘sh mahsuldorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Ishlab chiqarish tiplari kesimida simmental zotining go‘sh mahsuldorlik ko‘rsatkichlari respublikaning keskin o‘zgaruvchan iqlim sharoitida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu o‘rinda simmental zotli har xil ishlab

¹<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=34858938>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to‘g‘risida” gi, PF-60-sonli Farmoni

chiqarish tipidagi qoramollarning o'sish va rivojlanishi, tirik vaznining dinamik ko'rsatkichlari, go'sht mahsuldorligi hamda ushbu zotdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18-martdagi PQ-4243-sonli "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlarida belgilangan vazifalarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning V.«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustivor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Simmental zotli qoramollarning go'sht mahsuldorligi, o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari, eksterer xususiyatlari, sut mahsuldorligi, laktatsiya faoliyati mahsuldor podalar yaratish borasida mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu olimlar qatoriga, Amin A.A.(1997); J. U. Grettenand, V. Meyer, (1972); G. Batis, S.Bozo, (1973;1978) va MDH olimlaridan Strekozov N.I. (2002); Shilov A. (2001,2005); Kosilov V.(2001); Tyulebayev S. (2005; 2013); Soloshenko V.A., Inerbayev B.O.(2014); Smirnov D.A.,(2002); Golubkov A.I. (2014); Getokov O.O.,(2013);Trufanov V.G. (2010); Nemsov A.A., Sitdikov I.X. (2004); Batrakov N.K.,(2007); Pustotina G., (2006); Smakuyev D.R. (2014) va mamlakatimiz olimlaridan Nosirov U.N.(1974; 2016); Ashirov M.E. (1991); Kaxarov A.K. (2004); Shokirov K.J. (2016) va boshqalarni keltirish mumkin. Ushbu olimlar simmental zotli qoramollarning go'sht mahsuldorligi, eksterer xususiyatlarini, ishlab chiqarish tiplari kesimida ozuqani mahsulot bilan qoplash xususiyati, simmental zoti bilan boshqa zotlarni duragaylashning ijobiy natijalari haqida tadqiqotlar olib borgan. Ammo, import qilingan simmental zotli sigirlardan olingan har xil ishlab chiqarish tipdagi buqachalarning go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari O'zbekistonning keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitida yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand veterinariya meditsinasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №0194513 «Qoramollarning mahsuldorligi va uni sifatini yaxshilash bo'yicha genetik potensialidan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan (2020-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning keskin o‘zgaruvchan iqlim sharoitida simmental zotli sut-go‘sh t va go‘sh t-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni o‘shish va rivojlanishi, go‘sh t mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tajribadagi buqachalarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarini o‘rganish;
har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

yilning fasllari kesimida buqachalarning klinik va qonining morfologik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

tajribadagi buqachalarning go‘sh t mahsuldorligi, go‘sh tning morfologik tarkibi o‘rganish;

buqachalarni so‘yishdan olingan qo‘shimcha mahsulotlar miqdori, chiqimini aniqlash;

buqachalardan olingan teri xom ashyosini sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;

har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi “Sardoba temir yo‘l agrosanoat majmuasi” MChJ da urchitilayotgan simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib Simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipiga mansub buqachalarni saqlash va oziqlantirish sharoiti, eksterer xususiyatlari, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, klinik va qonining morfologik ko‘rsatkichlari, go‘sh t mahsuldorligi, so‘yim ko‘rsatkichlari, so‘yimdagi qo‘shimcha mahsulotlar, terini sifat ko‘rsatkichlari kabi belgilar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqotni bajarishda, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, ekstereri, tana tuzilish indeksleri, go‘sh t mahsuldorligi, go‘sh tning morfologik tarkibi, iste‘mol qilgan ozuqani go‘sh t mahsuloti bilan qoplash xususiyati, so‘yim va so‘yimdagi qo‘shimcha mahsulotlar, go‘sh tning ko‘rsatkichlari kabi ko‘rsatkichlarni aniqlashda, zootexniyada umumqabul qilingan usullardan va “Issiqlikka chidamlilik indeksini aniqlash”da Yu.O.Raushenbax, “Teri va uning sifat ko‘rsatkichlari” aniqlashda Ye.A.Arzumanyan, o‘rtacha arifmetik qiymat (X), uning xatosi (S_x), o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (S_v), ishonchlilik darajalari (td) va bo‘lag‘alari (P)” hisoblashda Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturi yordamida N.A.Ploxinskiy (1969) usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, O‘zbekistonning keskin o‘zgaruvchan iqlim sharoitida simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni jadal o‘stirish va bo‘rdo qilish bilan 18 oylikda maqbul tirik vaznda go‘sh tga topshirish mumkinligi aniqlangan;

ilk bor xo‘jalikda har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni jadal o‘stirish va 500 kg dan ortiq vaznda go‘sh tga so‘yishning maqbul yoshi isbotlangan;

go‘sh t-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan foydalanilganda, sut-go‘sh t tipidagilarga nisbatan tirik vaznda 29,5 kg (5,8%) va so‘yim vaznda 20 kg (7,4%) yuqori go‘sh t mahsuldorlikni namoyon etishi aniqlangan;

go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan foydalanish natijasida, sut-go'sht tipidagilarga nisbatan 1,328 mln.so'm ko'p foyda olinib, 9% iqtisodiy samarador ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitida simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalar jadal o'stirilganda va bo'rdoqilganda ularni erta davrlarda go'shtga topshirish muddati aniqlangan;

xo'jalikda simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni maqbul tirik vaznda go'shtga topshirish mumkinligi isbotlangan;

go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan foydalanilganda, sut-go'sht tipidagilarga nisbatan yuqori go'sht mahsuldorlik aniqlangan;

go'sht ishlab chiqarishda simmental zotini go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalaridan foydalanish sut-go'sht tipidagilarga nisbatan samarali ekanligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy uslub va vositalardan foydalanilganligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zootexnologiya fakulteti aprotatsiya komissiyalari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari va birlamchi hujjatlarga ijobiy baho berilganligi, barcha eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlildan o'tkazilganligi, olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi va ilmiy-tadqiqot natijalari yetakchi ilmiy va ilmiy-amaliy nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, O'zbekistonning keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitida simmental zotli go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalarning go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish yo'llarini ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, olingan ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash bilan, simmental zotli go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalarning o'sish, rivojlanish va go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari yaxshilangan, go'sht-sut tipidagi buqachalardan sifatli go'sht yetishtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Simmental zotli go'sht-sut va sut-go'sht ishlab chiqarish tipidagi buqachalarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

simmental zotli go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan samarali foydalanish usuli Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi "Sardoba temir yo'l agrosanoat majmuasi" MChJ da joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2022-yil 30-dekabrda 02/23-562-son ma'lumotnomasi). Natijada xo'jalikda go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqalardan, sut-go'sht tipidagilarga nisbatan 1 bosh buqachadan 1328 ming so'm ko'p foyda olingan va 1 s go'sht yetishtirishdagi xarajatlarni 400 ming so'mga iqtisod qilish evaziga, samaradorlik darajasi 8,9% ga oshgan;

- buqalarni intensiv texnologiyada o'stirish usuli Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi "Bosh buloq chorva" mas'uliyati cheklangan jamiyatida joriy etilgan

(Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2022 yil 30 dekabrda 02/23-562-son ma‘lumotnomasi). Natijada jadal ravishda o‘stirilgan shvits zotli 18 oylikgacha buqachalardan 1 s go‘sh t yetishtirish uchun sarf harajatlar 22% ga yoki bir bosh buqaga bo‘ladigan xarajatlar 2 oy muddatga qisqarib, har bosh hisobiga 5200 ming so‘m tejalgan va rentabellik darajasi 12,1% ga oshgan;

intensiv texnologiyalar asosida simmental zotli go‘sh t-sut ishlab chiqarish tipidagi buqalardan go‘sh t yetishtirish usuli Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi “Baxt imkon rivoj chorvasi” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2022 yil 30 dekabrda 02/23-562-son ma‘lumotnomasi). Natijada xo‘jalikda intensiv texnologiyada o‘stirilgan go‘sh t-sut tipidagi buqalardan go‘sh t yetishtirish 1 s go‘sh t yetishtirish uchun sarf xarajatlarni 19% ga tejalishini va rentabellik darajasini 11,7% ga yuqori bo‘lishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani “Sardoba temir yo‘l agrosanoat majmuasi” MChJ yig‘ilishlarida (2020-2022 yillar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zooteknik fakultetining aprobatsiya komissiyasi (05.09.2020 y va 25.06.2022 y) tomonidan, “Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrasining kengaytirilgan yig‘ilishida (23.12.2022) hamda 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida 4 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda maqolalar chop qilingan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi, kirish, beshta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarining xorij va O‘zbekistonda qoramol go‘sh t yetishtirishning holati va rivojlanish istiqbollari, simmental zotiga xarakteristika, ishlab chiqarish tiplarini go‘sh t mahsuldorligiga bog‘liqligi, go‘sh t

ishlab chiqarishda simmental zotidan foydalanishga bog‘liq ilmiy izlanishlarining natijalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotni obyeksi va uslubiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan xo‘jalikning geografik joylashuvi va tabiiy-iqtisodiy sharoiti, tadqiqot materiallari, tadqiqotni bajarish uslublari bayon etilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlarining tajriba qismi 2020-2022 yillar mobaynida Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi “Sardoba temir yo‘l agrosanoat majmuasi” MChJ da bajarilgan. Tadqiqot obyeksi sifatida, xo‘jalikda urchitilayotgan simmental zotli har xil ishlab chiqarish tipiga mansub buqachalar tanlangan. Tadqiqotlar davomida tajribadagi, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, ekstereri, tana tuzilish indeksleri, go‘shh mahsuldorligi, go‘shhning morfologik tarkibi, so‘yim va so‘yimdagi qo‘shimcha mahsulotlar, go‘shhdorlik ko‘effitsiyenti kabi ko‘rsatkichlarni aniqlashda foydalanilgan uslublar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajribadagi buqachalarni parvarishlash, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari”** deb nomlangan uchinchi bobida buqalar saqlangan og‘ilxonalarda yil fasllari bo‘yicha mikroiklim ko‘rsatkichlari, tajribadagi buqalarni oziqlantirish sharoiti, eksterer xususiyatlari, buqalarning o‘shish va rivojlanishi bo‘yicha ma‘lumotlar bayon qilingan.

1-jadval ma‘lumotlarida xo‘jalikda tajribadagi buqachalarni o‘stirish va bo‘rdoqilash uchun jami 4200 ozuqa birligi va 571,6 kg hazmlanuvchi protein sarflandi. Ushbu ozuqalardan go‘shh-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalar davrlar mobaynida sut-go‘shh tipidagi tengqurlaridan samaraliroq foydalanganligi aniqlandi. II guruhdagi buqachalar berilgan jami ozuqalarning tarkibidagi ozuqa birligidan 3955 kg va proteinni 533 kg o‘zlashtirgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich I guruhda tegishli 3724,8 va 500 kg ni tashkil etdi. Yoki jami sarflangan ozuqa birligi va hazmlanuvchi proteindan tajriba guruhi buqachalari tegishli 94,2 va 93,2 foiz foydalangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich mos ravishda 88,7 va 87,5 foizni tashkil qildi. Ozuqalar tarkibidagi to‘yimli moddalardan tajriba guruhidagi buqachalar nazorat guruhidagi tengqurlaridan mos ravishda 5,5 va 5,7 foiz samaraliroq foydalanganligi aniqlandi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, jami sarflangan ozuqa birligi va hazmlanuvchi proteindan birinchi guruhda no‘shxo‘rd 475,2 va 71,6 kg ni, tajriba guruhida esa 245 va 38,6 kg ni tashkil qildi.

Buqalarning tashqi tuzilishi va tana indekslerini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribalarimizda biz buqalardan tana o‘lchamlarini olib, guruhlararo taqqoslab o‘rgandik.

Tajribadagi buqachalarning tana o‘lchamlari tug‘ilganida 6, 12 va 18 oylik yoshida o‘rganildi. Buqachalar bir xil oziqlantirish va saqlash sharoitida bo‘lsada, ularni eksterer ko‘rsatkichlarida davrlar bo‘yicha farqlanishlar kuzatildi. Tajribadagi buqachalarning o‘shishi 6 oygacha jadallikda kechganligi kuzatildi. Davrlar mobaynida olingan natijalarni umumlashtirilib, quyidagi jadvalda keltirdik (2-jadval).

**Tajriba davomida sarflangan va haqiqiy
iste'mol qilingan ozuqalar miqdori va to'yimligi (bir boshga)**

Ozuqa turi	Sarflangan miqdori, kg			Ozuqalar tarkibida, kg					
				Jami sarfi		I guruh (haqiqiy iste'mol qilindi)		II guruh (haqiqiy iste'mol qilindi)	
	Jami	I guruh (haqiqiy)	II guruh (haqiqiy)	Oz.bir	Hazm. prot	Oz.bir	Hazm.prot	Oz.bir	Hazm. Prot
Sut	500	500	500	150	16,5	150	16,5	150	16,5
Beda pichani	1250	746	950	550	126,2	328	75,3	418	96
Bug'doy Somoni	903	720	800	198,6	8,1	158,4	6,5	176	7,2
Silos (makajo'xori)	1350	1213	1310	270	19	242,6	17,1	262	18,3
Senaj (turli o'tlar)	600	436	500	174	14	126,4	10,2	145	11,5
Lavlagi	584	482	520	140	4,1	116	3,4	124,8	3,6
Ko'k makka- jo'xori poyasi	4600	4275	4468	966	51	898	47	938,2	49,1
Ko'k beda	1300	1080	1250	273	49,4	227	41	262,5	47,5
Bug'doy doni	255	255	255	324	36,2	324	36,2	324	36,2
Makkajo'xori (sariq) doni	297	297	297	395	22	395	22	395	22
Bug'doy kepagi	333	333	333	250	32,3	250	32,3	250	32,3
Arpa yormasi	288	288	288	331,2	24,5	331,2	24,5	331,2	24,5
Omuxta yem	198	198	198	178,2	168,3	178,2	168,3	178,2	168,3
Jami:				4200	571,6	3724,8	500	3955	533

2-jadval

Tajribadagi buqachalarning eksterer o'lchamlari, sm

O'lchamlar	Tug'ilganda				6 oyligida			
	I		II		I		II	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Gavdaning qiya uzunligi	68,1±0,69	3,51	69,1±0,45	2,26	107,8±0,74	2,37	109,0±0,65	2,07
Yag'rin balandligi	71,7±0,57	2,75	73,0±0,46	2,19	100,6±0,69	2,38	101,2±0,68	2,34
Ko'krak chuqurligi	29,6±0,31	3,66	30,2±0,39	4,43	48,8±0,56	3,99	49,2±0,63	4,41
Ko'krak kengligi	18,0±0,44	8,54	18,3±0,47	8,81	27,9±0,51	6,38	28,9±0,60	7,14
Ko'krak aylanasi	76,6±0,88	3,99	77,0±0,83	3,71	140,6±0,51	1,27	141,0±0,58	1,42
Orqaning yarim aylanasi	29,4±0,42	4,91	31,0±0,56	6,30	52,9±0,65	4,22	54,0±0,91	5,86
Pocha aylanasi	9,9±0,29	10,05	10,1±0,31	10,75	14,9±0,36	8,31	15,1±0,40	9,14

2-jadval davomi

O'lchamlar	12 oyligida				18 oyligida			
	I		II		I		II	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Gavdaning qiya uzunligi	130,3±0,63	1,67	131,8±0,67	1,75	149,0±0,35	0,81	151,7±0,51***	1,18
Yag'rin balandligi	102,8±0,84	2,85	103,3±0,91	3,07	126,0±0,48	1,40	128,0±0,37***	1,06
Ko'krak chuqurligi	57,9±0,63	3,79	59,9±0,74	4,30	68,0±0,30	1,54	69,6±0,34***	1,67
Ko'krak kengligi	36,2±0,39	3,70	37,1±0,45	4,22	39,1±0,36	3,17	41,2±0,41**	3,49
Ko'krak aylanasi	162,4±0,31	0,67	163,7±0,36	0,75	176,2±0,59	1,16	180,4±0,61***	1,19
Orqaning yarim aylanasi	64,8±0,44	2,36	65,2±0,47	2,52	87,0±0,59	2,35	91,2±0,61***	2,41
Pocha aylanasi	17,3±0,26	5,12	17,4±0,29	5,72	19,2±0,42	7,65	19,7±0,47*	8,21

Eslatma: *P≤0,05, **P≤0,01, ***P≤0,001

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tug'ilganda II guruhdagi buzoqlar I guruhdagi tengqurlaridan gavdasining qiya uzunligi, yag'rin balandligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak kengligi, ko'krak aylanasi, orqa qismining yarim aylanasi va poycha aylanasi bo'yicha ustunligi qayd etildi. Jumladan, gavdaning qiya uzunligi 1,0 cm (1,4%), yag'rin balandligi 1,3 cm (1,9%), ko'krak chuqurligi 0,6 cm (2,0%), ko'krak kengligi 0,3 cm (1,6%), ko'krak aylanasi 0,4 cm (0,5%), orqa qismining yarim aylanasi 1,6 cm (5,2%) va pocha aylanasi 0,2 cm (2,0%) ustunlikni namoyon qildi ($P \leq 0,05$).

Buqachalarning eksterer o'lchamlari rivojlanishning kengi davrlarida ham o'zgarib bordi. Jumladan, 6 oyligida gavdaning qiya uzunligi 1,2 Cm (1,1%), yag'rin balandligi 0,6 cm (0,6%), ko'krak chuqurligi 0,4 cm (0,8%), ko'krak kengligi 1,0 cm (3,5%), ko'krak aylanasi 0,4 cm (0,3%), orqa qismining yarim aylanasi 1,1 cm (2,0%) va pocha aylanasi 0,2 cm (1,3%) yuqori bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar rivojlanishning 12 oyligida mos ravishda 1,5 cm (1,1%); 0,5 cm (0,5%); 2,0 cm (3,3%), 0,9 cm (2,4%); 1,3 cm (0,8%) va 0,4 cm (0,6%) hamda 18 oyligida tegishli 2,7 cm (1,8%); 2,0 cm (1,6%); 1,6 cm (2,3%); 2,1 cm 5,1%); 4,2 cm (2,3%) va 4,2 cm ga (4,6%) yuqori natijalarni qayd etgani kuzatildi ($P \leq 0,001$) pocha aylanasi 0,5 cm (2,5%, $P \leq 0,05$) ga yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi.

3-jadval

Har xil ishlab chiqarish tipidagi buqachalarning tana indekslari, %

Tana tuzilish indekslari	6 oyligida		12 oyligida		18 oyligida	
	I	II	I	II	I	II
Uzunoyoqlilik	51,4	52,5	43,6	42,0	46,0	45,6
Cho'zinchoqlik	107,1	108	126,7	127,5	118,2	118,5
Zichlik	130,4	129,3	124,6	124,2	118,2	118,9
Ko'krakdorlik	57,1	58,8	62,5	62,0	57,5	59,2
Suyakdorlik	14,8	15,0	17,0	16,8	15,2	15,4
Go'shtdorlik	52,5	53,3	63,0	63,1	69,0	71,3

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalarning go'shtdorlik belgilari bilan bog'liqlikdagi buqachalarning tana indeks ko'rsatkichlarida ustunlik kuzatilgan. Bunda 18 oylikda go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalar tengqurlari sut-go'sht tipidagilardan cho'zinchoqlik indeksi bo'yicha 0,3% ga, zichlik indeksida 0,7% ga, go'shtdorlik indeksi bo'yicha esa 2,3 % ga ustunlikka erishganligi kuzatildi.

Tadqiqotlarda turli ishlab chiqarish tipiga mansub Simmental zotli buzoqlarni o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligini shakllanishini oziqlantirish va saqlash sharoiti bir xil tashkil qilingan holatda o'rgandik. Tajriba davomida ularni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarida farqlar kuzatilganligiga guvoh bo'ldik (4-jadval).

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, I va II guruhda tug'ilgan vaqtda buzoqlarni tirik vazni bo'yicha o'rtacha farq 0,5 kg ga, go'sht-sut tipidagi buzoqlar ustunligida bo'lgan. Buzoqlarda I va II guruhda tirik vazn bo'yicha farq 3 oylikda

9,4 kg (7,9%) ga go'sht-sut tipidagi buzoqlar ustunligida kechgan. Shuningdek, tirik vazni bo'yicha 6; 9; 12; 15 va 18 oylik yosh davrlarida tegishlicha 13,2 kg (6,5%); 15,4 kg (5,7%); 19,3 kg (5,6%); 24,0 kg (5,6%) va 29,5 kg (5,8%) ga ikkinchi guruhdagi buqalar birinchi guruhdagi tengdoshlaridan ustuvorlikni qayd etdi ($P \leq 0,05$).

4-jadval

Tajribadagi buqachalarning davrlar mobaynida tirik vazni dinamikasi, kg

Yoshi, oy	Ishlab- chiqarish tiplari bo'yicha guruhlar			
	I (sut-go'sht)		II (go'sht-sut)	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Tug'ilganda	32,0±0,58	6,29	32,5±0,58	6,22
3	109,0±0,60	1,92	118,4±0,65	1,89
6	190,3±0,72	1,31	203,5±0,83	1,41
9	252,9±2,68	3,67	268,3±2,83*	3,66
12	326,5±3,23	3,43	345,8±4,04*	4,05
15	401,3±3,02	2,61	425,3±3,11*	2,53
18	479,4±2,07	1,49	508,9±2,87*	1,96

* $P \leq 0,05$

Bunda mutloq o'sish ko'rsatkichi bo'yicha II guruh buqachalar, I guruh tengdoshlaridan 0-3 oylik yoshida 8,9 kg (10,4%, $P \leq 0,001$), 3-6 oylikda 3,8 kg (4,5%, $P \leq 0,05$), 6-9 oylikda 2,2 kg (3,4%, $P \leq 0,05$), 9-12 oylikda 3,9 kg (5,2%, $P \leq 0,05$), 12-15 oylikda 5,0 kg (6,7%, $P \leq 0,05$), 15-18 oylikda esa 5,5 kg (7%) ga ustunlik qildi. O'stirish va bo'rdoqilash davrini so'nggi 18 oylik ko'rsatkichlari bo'yicha olganimizda bu natija 29 kg yoki 6,1% ga ($P \leq 0,001$) teng bo'ldi.

Dissertatsiyaning "Tajribadagi buqachalarning ayrim biologik xususiyatlari" deb nomlangan to'rtinchi bobida, tajribadagi buqachalarning klinik va qonining morfologik ko'rsatkichlari, hamda issiqlikka chidamlilik indeksi aniqlandi va tahlil qilindi.

Tajriba guruhlaridagi qoramollarda klinik ko'rsatkichlari fiziologik me'yor talablari darajasida bo'lganligi aniqlandi. Ularda yoshining ortib borishi bilan klinik ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar to'liq qonuniyat asosida kechgan deb aytish mumkin. Fasllar kesimida klinik ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, yoz faslida tajribadagi har ikkala guruhdagi buqachalarda tana harorati boshqa fasllar ko'rsatkichlaridan 0,2-0,4 °C gacha yuqori bo'lganligi kuzatildi. Nafas olish soni kuz faslida minutiga 33-35 martani tashkil etgan bo'lsa, qish, bahor va yoz faslida tegishlicha; 30-32; 26-28 va 28-30 ta ni tashkil qildi. Bu holat buqalarni yoshini va gavdasini kattalashgani bilan bog'liq bo'lgan. Yoz faslida bahor fasliga nisbatan guruhlarda 2 marta yuqori ko'rsatkichda bo'lishi, tashqi muhitda haroratni ko'tarilishi bilan izohlanadi. Tomir urish soni bo'yicha tahlil qilganimizda, buqalarni yoshi ortib borgan sari, tomir urish soni kamayganligini kuzatdik. Tana haroratini o'zgarishini kuzatganimizda esa, aksincha, ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bunda buqalarni yoshiga bog'liq ravishda tana harorati asta-sekin oshib bordi. Tana harorati 18 oylik buqachalarda eng yuqori ko'rsatkichda bo'lib, I guruhdagi

sut-go'sht tipidagi buqachalarda 39,0⁰ C ni, II guruhda esa 38,5⁰ C ni ko'rsatdi. Shunday bo'lsada, har ikkala guruhda klinik barcha ko'rsatkichlar me'yor darajasida kechdi.

Dissertatsiyaning “Turli ishlab chiqarish tipiga mansub buqachalarning go'sht mahsuldorligi” deb nomlangan beshinchi bobida buqachalarning nazorat so'yim natijalari, so'yimdagi qo'shimcha mahsulotlar, tajribadagi buqalarning teri xom-ashyosi, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi va xulosalar bayon qilingan.

Tadqiqotlarda buqalarning go'sht mahsuldorligini o'rganish maqsadida biz, har guruhdagi buqachalardan 3 boshida nazorat so'yimini o'tkazdik. Buqachalarni nazorat so'yish uchun Toshkent viloyati Zangiota tumani A.Temur ko'chasidagi qushxonaga olib borildi va shu yerda so'yildi.

5-jadval

Buqachalarning 18 oyligida nazorat so'yimi natijalari ($X \pm S_x$)

Ko'rsatkichlar	Guruh (n=3)	
	I	II
Bo'rdoqilashdan keyingi tirik vazni, kg	479,4±2,07	508,9±2,87***
So'yishdan oldingi tirik vazni, kg	455,3±5,70	485,0±7,51**
So'yishgacha yo'qotilgan tirik vazn: kg	24,1	23,9
%	5,3	4,9
Sovimagan nimta vazni, kg	241,0±5,21	259,3±5,36*
Nimta chiqimi, %	53,0	53,5
Ichki yog' og'irligi, kg	11,0±0,58	12,7±0,33
Ichki yog' chiqimi, %	2,4	2,6
So'yim vazni, kg	252,0±5,78	272,0±5,59*
So'yim chiqimi, %	55,3	56,0

Izox: *P≤0,05, **P≤0,01, ***P≤0,001

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, buqachalarning bo'rdoqilashdan keyingi tirik vazni II guruhda (go'sht-sut tipi) 508,9 kg ni tashkil qilib, I guruhda (sut-go'sht tipi) 479,4 kg bo'ldi va ikkinchi guruhdagi buqachalar birinchi guruhdagi tengqurlaridan 29,5 kg yoki 5,8% ga ($P \leq 0,001$) ustunlik qildi. Shuningdek, so'yishdan oldingi tirik vazni 29,7 kg ga yoki 6,5% ($P \leq 0,01$) yuqori bo'ldi. Buqalarni so'yishdan olingan sovumagan nimtaning vazni II guruhda 259,3 kg ni tashkil qilib, I guruhga nisbatan 18,3 kg yoki 7,6% ga ($P \leq 0,05$) yuqori bo'ldi. Sovumagan nimta chiqimi esa II guruhda 0,5% ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Go'sht mahsuldorlikni yana bir muhim ko'rsatkichi bu so'yim vazni hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham II guruhdagi (go'sht-sut tipi) buqalarda I guruh (sut-go'sht) dagi tengqurlaridan 20,0 kg yoki 7,4% ga ($P \leq 0,05$) ustunlikni namoyon etdi. So'yim chiqimi bo'yicha II guruhdagi buqachalarda 0,7% ustunlik kuzatildi.

O'tkazilgan tadqiqotlarda biz, buqachalarni so'yishdan olingan go'sht nimtasining morfologik tarkibini o'rgandik, olingan ma'lumotlar quyidagi 6-jadvalda berildi.

Go'sht nimtasining morfologik tarkibi

Ko'rsatkichlar	Guruh (n=3)	
	I	II
Sovimagan nimtaning vazni, kg	241,0±5,21	259,3±5,36*
Sovutilgan nimtaning vazni, kg	237,0±4,62	256,3±5,36*
Sovutgan nimtada yo'qotilgan vazn: kg	4,0	3,0
%	1,6	1,2
Muskullar, kg	175,8	190,8
%	74,2	74,4
Yog', kg	10,6	12,1
%	4,5	4,7
Suyak va tog'aylar, kg	42,0	44,5
%	17,7	17,4
Paylar va bog'lamlar, kg	7,8	7,9
%	3,3	3,1
Yo'qotishlar, kg	0,8	0,7
%	0,3	0,4
Go'shtdorlik indeksi	4,18	4,29

Izox: *P≤0,05

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sovutilgan nimtaning vazni go'sht-sut tipidagi II guruh buqalarda 256,3 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, o'z tengqurlari sut-go'sht tipidagi I guruh buqalarda 237,0 kg bo'lib, ularga nisbatan 19,3 kg yoki 8,1% ga yuqori ko'rsatkichda bo'ldi. Nimtaning muskul to'qimasi, go'shtda eng qimmatli qism hisoblanadi. Nimtadan muskullar ajratilganda II guruhdagi buqachalarda I guruh buqalarga nisbatan 15,0 kg yoki 8,5% muskul to'qimasi ko'p olinganligi ma'lum bo'ldi. Har ikkala guruhda muskul to'qimasining yuqori foizda bo'lishi (74,2-74,4%), ularda go'sht mahsuldorligining yuqori darajada shakllanganligidan darak beradi.

Buqachalarning go'shtdorlik xususiyatlariga aniqroq baho berish maqsadida, yarim gavadada lahm va suyak miqdorlarini o'rgandik (7-jadval).

Yarim gavadadagi lahm va suyak miqdori

Gavadadagi qismlar	Guruh (n=3)							
	I				II			
	Lahm		Suyak		Lahm		Suyak	
	kg	%	kg	%	kg	%	kg	%
Bo'yin	7,6	7,6	1,8	8,6	6,6	6,2	1,9	8,9
Yelka- kurak	17,7	17,7	4,4	20,0	17,1	16,03	4,3	20,1
Orqa va qovurg'alar	27,6	27,6	7,5	39,0	33,1	31,04	8,3	38,8
Bel	9,3	9,3	1,3	6,2	9,2	8,63	1,3	6,1
Tos-son	37,8	37,8	5,5	26,2	40,6	38,1	5,6	26,1
Jami	100,0	100	20,5	100	106,6	100	21,4	100

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yarim gavda vazni bo'yicha ham go'sht-sut tipidagi II guruh buqachalarda ustunlik mavjud. Bu miqdor farqi 7,5 kg ni (6,2%) tashkil qildi. Shuningdek, yarim gavda vaznning lahm qismi sut-go'sht tipidagi I guruh buqachalarda 100,0 kg yoki 82,9%, suyak qismi 20,5 kg yoki 17,1% ni tashkil etgan bo'lsa, go'sht-sut tipidagi II guruh buqachalarda 106,6 kg yoki 83,3% ni lahm va 21,4 kg yoki 16,7% ni suyak qismidan iborat bo'ldi. Gavdani bo'yin, yelka-kurak, orqa va qovurg'alar, bel, tos-son qismlarida har ikkala guruhda go'sht bilan to'lishganlik darajasi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlar yakunida biz simmental zotli turli ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni o'stirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobladik.

8-jadval

Simmental zotli turli ishlab chiqarish tipidagi buqachalarni o'stirishning iqtisodiy samaradorligi (1 boshga)

Ko'rsatkichlar	Guruh	
	I	II
Bo'rdoqilash oxirida mutlaq vazn ,kg	479,4	508,9
So'yim vazni, kg	252,0	272,0
Jami sarflangan ozuqa birligi	4200	4200
1 kg tirik vaznga sarflangan haqiqiy ozuqa birligi	8,8	8,3
1 s go'shtni tannarxi, mln.so'm	5,8	5,4
1 s go'shtni xarid bahosi, mln.so'm	7,0	7,0
Jami harajatlar, mln. so'm	14,616	14,688
Jami daromad, mln. so'm	17,64	19,04
Sof foyda, mln.so'm.	3,02	4,35
Rentabellik, %	20,0	29,0

8-jadval ma'lumotlari ko'rinib turibdiki, xo'jalikda bir bosh buqaga tajriba davomida ratsion bo'yicha jami 4200 ozuqa birligi sarflangan. Tajriba davomida 1 kg qo'shimcha vazn olish go'sht-sut tipidagi buqachalar tengqurlari sut-go'sht tipidagi buqachalarga nisbatan 0,5 ozuqa birligi kam sarfladi. 1 s go'shtni tannarxi tajriba guruhidagi buqachalarda 0,4 mln so'm tejalishini ta'minladi. Samaradorlik go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqalarda 9,0% yuqori bo'ldi.

XULOSALAR

1. Jami sarflangan ozuqa birligi va hazmlanuvchi proteindan tajriba guruhi buqachalari tegishlicha 94,2 va 93,2 foiz foydalangan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich mos ravishda 88,7 va 87,5 foizni tashkil etib, ozuqalar tarkibidagi to'yimli moddalardan tajriba guruhidagi buqachalar nazorat guruhidagi tengqurlaridan mos ravishda 5,5 va 5,7 foiz samarali foydalanganligi, go'sht-sut

tipidagi buqalardan xo‘jalikda go‘sh t yetishtirish samaraliroq degan tushunchani beradi.

2. Xo‘jalikda har ikkala guruhdagi buqalarga xo‘jalikdagi mavjud oзуqalardan foydalanib, davrlar bo‘yicha muvozanatlashgan ratsionlar tuzilgan. Tajriba davomida 4200 oзуqa birligi va 571,6 kg hazmlananuvchi protein sarflangan, ammo undan go‘sh-tut tipidagi buqalar tegishlicha 3955 va 533 kg yoki 94 va 93% foydalangan bo‘lsa, sut-go‘sh tipidagi buqachalar 3724,8 va 500 kg yoki 88 va 87% foydalangan, ya‘ni shunga mos ravishda no‘shxo‘rd tarkibida mos ravishda 6; 7 va 12; 13% oзуqa birligi hamda hazmlanuvchi protein isrof bo‘lgan. Bu ma‘lumotlar, Sardoba suv ombori toshqini yetishtirilgan yem-xashakning sifatiga salbiy ta‘sir qilganligidan dalolat beradi. Shunday bo‘lsada, go‘sh-tut tipidagi buqachalar umumiy sarflangan oзуqalardan o‘z tengqurlari sut-go‘sh tipidagi buqachalardan samaraliroq foydalangan, buni ularni tipga xos xususiyatlari deb xulosa qilish mumkin.

3. Bir xil oziqlantirish va saqlash sharoitida bo‘lsada, go‘sh-tut ishlab chiqarish tipidagi buqachalar 18 oylikda gavdasining qiya uzunligi 2,7 cm (1,8%, $P \leq 0,001$), yarg‘in balandligi 2,0 cm (1,6%, $P \leq 0,001$), ko‘krak chuqurligi 1,6 cm (2,3%, $P \leq 0,001$), ko‘krak kengligi 2,1 cm (5,1%, $P \leq 0,01$), ko‘krak aylanasi 4,2 cm (2,3%, $P \leq 0,001$), orqaning yarim aylanasi 4,2 cm (4,6%, $P \leq 0,001$) va poycha aylanasi 0,5 cm (2,5%, $P \leq 0,05$) ga yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qildi.

4. Tajribada buqachalarning o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganilganda, go‘sh-tut tipidagi buqachalar tengqurlari sut-go‘sh tipidagilardan tirik vazni bo‘yicha 6; 9; 12; 15 va 18 oylik yosh davrlarida tegishlicha 13,2 kg (6,5%); 15,4 kg (5,7%); 19,3 kg (5,6 %); 24,0 kg (5,6%) va 29,5 kg (5,8%) ga ustuvorlikni qayd etgan ($P \leq 0,05$).

5. Mutloq o‘shish ko‘rsatkichi bo‘yicha II guruh buqachalar, I guruh tengdoshlaridan 0-3 oylik yoshida 8,9 kg (10,4%, $P \leq 0,001$), 3-6 oylikda 3,8 kg (4,5%, $P \leq 0,05$), 6-9 oylikda 2,2 kg (3,4%, $P \leq 0,05$), 9-12 oylikda 3,9 kg (5,2%, $P \leq 0,05$), 12-15 oylikda 5,0 kg (6,7%, $P \leq 0,05$), 15-18 oylikda esa 5,5 kg (7%) ga ustunlik qilgan. Bu tendensiya o‘shishning keyingi davrlarida 6-9; 9-12; 12-15; 15-18 oylarida ham saqlanib qolgan va mos ravishda guruhlararo farq 24,5 g (3,5%, $P \leq 0,05$), 43,4 g (5,3%, $P \leq 0,05$), 55,6 g (6,7%, $P \leq 0,01$) va 61,1 g ni (7%, $P \leq 0,001$) tashkil etgan.

6. Kunlik o‘shish ko‘rsatkichlari bo‘yicha go‘sh-tut tipi buzoqlar sut davridayoq, o‘z tengdoshlari I guruh buzoqlardan 0-3 va 0-6 oylikda tegishlicha 98,8 g (11,5%, $P \leq 0,001$) va 70,6 g (8%, $P \leq 0,001$) yuqori ko‘rsatkichni namoyon etib, bu o‘shishning keyingi davrlarida 6-9; 9-12; 12-15; 15-18 oylarida ham saqlanib qolgan va tegishlicha guruhlararo farq 24,5 g (3,5%, $P \leq 0,05$), 43,4 g (5,3%, $P \leq 0,05$), 55,6 g (6,7%, $P \leq 0,01$) va 61,1 g ni (7%, $P \leq 0,001$) tashkil etgan, demak go‘sh-tut tipidagi buqachalar o‘shish va rivojlanishda tengqurlarini ortda qolidridi, ulardan xo‘jalikda foydalanish maqbulligini ko‘rsatgan.

7. Simmental zotli buqachalarning qonini morfologik ko‘rsatkichlari o‘rganilganda, ularni yoshiga mos ravishda yilni turli fasllarida keskin o‘zgarish

kuzatilmadi. Yoz faslida ularda eritrotsit, leyykotsit va gemoglobin miqdori biroz oshganligi kuzatildi. Ammo bu ko'rsatkichlar me'yordan keskin ko'tarilmadi. Shuningdek, buqalarni issiqlikka chidamlilik ko'rsatkichlari o'rganilganda, issiqlikka bardoshli ekanligi aniqlandi, bundan simmental zotli buqachalar ushbu iqlimda tug'ilganligi bois, unga ancha moslashgan deb xulosa qilish mumkin.

8. Intensiv texnologiyada parvarishlangan buqalarning barchasi birinchi semizlik kategoriyasiga mansub bo'ldi. Buqachalarning bo'rdoqilashdan keyingi tirik vazniga nisbatan tashish (150 km, 3 soat) salbiy ta'sir ko'rsatmadi, ya'ni vazni yo'qotish me'yor darajasidan keskin og'madi, bundan simmental zotli buqachalar tashqi stresslarga bardoshli ekan deb xulosa qilish mumkin.

9. Buqachalarning bo'rdoqilashdan keyingi tirik vazni go'sht-sut tipidagi buqachalar sut-go'sht tipidagi tengqurlaridan 29,5 kg yoki 5,8% ga ($P \leq 0,001$) ustunlik qildi. So'yishdan oldingi tirik vazni 29,7 kg ga yoki 6,5% ($P \leq 0,01$) yuqori bo'ldi. Buqalarni so'yishdan olingan sovimagan nimtaning vazni II guruhda 259,3 kg ni tashkil qilib, I guruhga nisbatan 18,3 kg yoki 7,6% ga ($P \leq 0,05$) yuqori bo'ldi. Sovimagan nimta chiqimi esa II guruhda 0,5% ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Buqachalarni so'yishdan chiqqan ichki yog' miqdori II guruhdagi buqalarda 1,7 kg yoki 15,4% ga yuqori bo'lgan.

10. Go'shtning morfologik tarkibi o'rganilganda har ikkala guruhda muskul to'qimasining yuqori foizda bo'lishi (74,2-74,4%), ularda go'sht mahsuldorligining yuqori darajada shakllanganligidan darak bergan. Sovitilgan nimtaning vazni go'sht-sut tipidagi II guruh buqachalarda 256,3 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, o'z tengqurlari sut-go'sht tipidagi I guruh buqachalarda 237,0 kg bo'lib, ularga nisbatan 19,3 kg yoki 8,1% ga yuqori ko'rsatkichda bo'ldi.

11. Yarim gavda vaznning lahm qismi sut-go'sht tipidagi I guruh buqachalarda 100,0 kg yoki 82,9%, suyak qismi 20,5 kg yoki 17,1% ni tashkil etgan bo'lsa, go'sht-sut tipidagi II guruh buqachalarda 106,6 kg yoki 83,3% ni lahm va 21,4 kg yoki 16,7% ni suyak qismidan iborat bo'ldi. Bu go'sht-sut tipidagi buqalarda go'sht mahsuldorlikning yaxshi shakllanishidan dalolat beradi.

12. Go'sht-sut tipidagi buqalardan birinchi navli sut-go'sht tipidagi buqalardan 9,1 kg yoki 10,2% yuqori ko'rsatkichga erishdi. Bu go'sht-sut tipidagi buqachalardan yuqori sifatli go'sht miqdori ko'proq olinganligini ta'minlagan.

13. Go'sht – sut tipidagi buqachalarda buyraklar, jigar, yurak, ichaklar, taloq va oshqozon kabi ichki organlar, o'z tengqurlaridan biroz og'ir natijalarni ko'rsatgan. Ular orasidagi farq mos ravishda, 0,02; 0,05; 0,07; 0,03 0,02 va 0,06 kg ni tashkil qildi. Go'sht-sut tipidagi buqachalarda oshqozon (katta qorin), sut-go'sht tipidagilardan 4,13% ga og'ir ekanligi kuzatilgan. Bu go'sht-sut tipidagi buqachalar ko'proq ozuqa qabul qilib, go'shtga aylantirish samarasi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

14. Tajribada buqachalarning teri xom-ashyosining sifati o'rganilganda, sovitilgan teri og'irligi, tajriba guruhidagi buqalarda, nazorat guruhidagi buqalarnikidan 4 kg yoki 10,5% ga og'ir ekanligi aniqlandi. Terining yuzasi ham $9,3 \text{ dm}^2$ yoki 2,72 % ga katta hajmli ekanligi kuzatilgan bo'lsada, har ikkala

guruhdagi buqachalardan olingan terilar sanoat xomashyosi sifatida yuqori sifat talablariga javob berdi. Bundan simmental zotli buqachalardan yengil sanoat uchun qimmatbaho teri olish mumkin degan xulosani beradi.

15. Go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan foydalanish, 1 s go'shtni tannarxi 0,4 mln so'm va jami harajatlarni har bosh buqadan 72 ming so'm tejalishiga olib kelgan, tadqiqot o'tkazilgan yillarda qoramolning bir kg tirik vaznining qiymati 35 000 ming so'mni tashkil etib, tirik vazni bo'yicha go'sht-sut tipidagi buqalar tengqurlari sut-go'sht tipidagi buqachalardan bo'rdoqilash davrinig oxirida 29,5 kg ortiqcha tirik vaznga erishdi, tirik vaznda har bosh hisobiga 1015 ming so'm ko'p foyda ko'rilgan, go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi buqachalardan go'sht yetishtirishda foydalanish, xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini 9% ga yuksalishini ta'minlagan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 05/30.12.2019. Qx.75.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО - ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

САДИКОВА ЧИНАРА САЛАХИДДИНОВНА

**МЯСНАЯ ПРОДУКТИВНОСТЬ БЫЧКОВ СИММЕНТАЛЬСКОЙ ПОРОДЫ
РАЗНЫХ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ТИПОВ**

06.02.03 - Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

САМАРКАНД - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2021.2.PhD/Qx772.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) размещён на веб-странице по адресу (www.uzkarakul.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Амиров Шавкат Кузибаевич

кандидат сельскохозяйственных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Тургунбаев Рузимбай Уразбаевич

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Курбанова Шахноза Эргашевна

доктор философии сельскохозяйственных наук (PhD)

Ведущая организация:

Научно- исследовательский институт

животноводства и птицеводства

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 по присуждению учёной степени доктора философии (PhD) при Научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь (Адрес: 140154, Самарканд, ул. М. Улугбека 47. Научно-исследовательский институт каракулеводства и экологии пустынь, тел: (99866) 233-32-79; факс: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru), административное здание Научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь, 2-этаж).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь (зарегистрировано за номером № ____). Адрес: 140154, Самарканд, ул. М. Улугбека, 47. Административное здание института, 1-этаж, тел: (99866) 233-32-79; факс: (99866) 233-34-81.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года.

(Реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2023 года)

Э.С.Шаптаков

Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.с-х.н., (DSc), доцент

З.С.Кличев

Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёной степени,
д.ф.с-х.н. (PhD), старший научный сотрудник

Д.Холмирзаев

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёной степени, д.с-х.н., профессор

Введение (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Симментальская порода является одной из древних пород крупного рогатого скота комбинированного направления продуктивности. Симментальская порода выведена в результате народной селекции путём отбора и подбора на протяжении длительного периода времени. В большинстве стран симментальская порода используется для производства мяса при скрещивании со скотом мясных и молочных направлений продуктивности. К этим странам можно отнести: США, Канада, Англия, Дания, Швеция, Бразилия и другие³. В связи с этим, для обеспечения населения качественной мясной продукцией эффективное использование симментальской породы является актуальной задачей.

Из стран СНГ в России симментальская порода скота разводится в 30 регионах. Больше всего разводится в Белгородской, Воронежской и Липецкой областях, Башкирии, Алтайской и Краснодарских краёв. Одним из передовых хозяйств считаются: ОПХ «Баймакский», СХПК «Чел-майдан» (Мордовия), «Брийск», «Чистюн» и другие. В России уделяется особое внимание научным исследованиям по повышению мясной продуктивности симментальской породы путём проведения селекционных и племенных работ.

